



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 AUGUST
№31**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 31-ҚЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
1-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
31-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-1**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
31-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-1**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 31-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Panjiyev Shahboz Sherali o'g'li JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR HAQIDA.....	7
2. Abdullayeva Muyassar Salohiddinovna YURIDIK JAVOBGARLIK VA HUQUQBUZARLIK.....	9
3. Egamova Oygul Saidjonovna, Jiyanova Shoxida Mahsumovna O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI TIZIMI.....	10
4. Kamolova Shaxlo Tirkashevna QONUN USTUVORLIGI VA QONUNIYLIKNI MUSTAHKAMLASHNING MUHIM AHAMIYATI	11
5. To'xtamatova Shoxsanam Xayrullo qizi YANGI O'ZBEKISTON AVLODLARIMIZ	12
6. Usmonova Odina Habibjonovna FUQAROLAR MUHOFAZASINI TA'MINLASH HAMDA HIMOYA QILISH OMILLARI	13
7. Xusainova Soxibaxon Sarvarjon qizi DAVLAT MUSTAQILLIGINING OILALAR MUSTAHKAM BO'LISHIDAGI AHAMIYATI	14



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR HAQIDA

Panjiyev Shahboz Sherali o'g'li

Qashqadaryo yuridik texnikumi talabasi

Telefon: +998907294525

Annotatiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquqiy ong va ma'daniyatini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy ma'daniyat. Street law. Huquqiy demokratik davlat.

Jamiyatda huquqiy ong va ma'daniyatni rivojlantirish uni keng targ'ib qilish insonlar ongiga singdirish bugungi kunning davr talabi bo'lib qolmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlaridagi yutuqlar va muvaffaqiyatlar har bir fuqaroning huquqiy ongi va madaniyatiga bog'liqdir.

Xo'sh, o'zi huquqiy madaniyat nima? degan savolga javob bersak. Biz avvalo ushbu savolning mohiyati va tushunchasini ochib berishimiz uchun huquqiy ong tushunchasiga ta'rif berishimiz lozim.

Huquqiy ong - bu insonning o'zi ma'rifat va ma'naviyat darajasiga tayangan holda jamiyatda amal qilayotgan huquqiy talab va normalarning mazmunini tushunish va mohiyatini anglashdir.

Demak, ko'rinib turibdiki, insonning ma'naviyati, ma'rifati, dunyoviy va siyosiy ongining keng bo'lishi, ushbu huquqiy ongning qay darajada yuksak bo'lishini belgilab berar ekan.

Ana endi huquqiy ma'daniyat deganda fuqaroning o'z haq-huquqlarini huquqiy ongiga tayangan holda o'zgalar manfaatiga zid kelmaydigan tarzda amalga oshirish tushuniladi.

Demak keng mulohaza qiladigan bo'lsak jamiyat farovonligi, uning tinchligi, osoyishtaligi va ma'naviy ongining yuksakligi ushbu omillarga bog'liqdir.

Yurtimizda ushbu keng qamrovli ishni amalga oshirishda muhtaram Prezidentimizning farmoni muhim turtki bo'ldi. 2019-yil 9-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi" farmoniga imzo chekildi.

Farmonda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligiga jamiyatda huquqiy ong va ma'daniyatni yuksaltirish bo'yicha qator chora-tadbirlar yuklatildi. Shundan so'ng har bir viloyat miqyosida Adliya Vazirligiga qarashli Yuridik texnikumlar tashkil etildi. Va bu Yuridik texnikumlar jamiyat orasida ushbu ishlarni amalga oshirishda katta vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu vazifa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida keltirilgan quyidagi bndlarni keltiramiz:

Ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish.

- Yoshlarga o'z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmini o'rgatishga qaratilgan "Street law" (ko'cha huquqi – oddiy huquq) loyihasini keng joriy qilish bo'yicha quyidagi tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalari talabalari, yuridik texnikum talabalari, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat ko'ngillilar (volonter) guruhini shakllantirish;

- "Street law" loyihasini amalga oshirilishini metodik ta'minlash choralari ishlab chiqish;

- Ko'ngilli volonter guruhlari uchun interaktiv mashg'ulotlar olib boorish metodikasi



bo'yicha treninglar o'tkazish;

- Ko'ngilli volontiyor guruhlar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari hamda umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun mashg'ulotlar o'tkazish;

Va shu bilan birga oliy ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari qamrab oluvchi ko'rik tanlovlarni ham tashkil etish muhim hisoblandi.

Ushbu keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda Adliya Vazirligi tasarrufidagi Yuridik texnikumlarning o'rni katta. Yuridik texnikum talabalariga sifatli yuridik ta'lim berish bilan bir qatorda huquqiy targ'ibotlarni amalga oshirish va mahalla, umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishda keng targ'ibot ishlari doimiy davom etib kelmoqda. Va bu albatta jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishiga ulkan xizmat qiladi.

Jamiyatda huquqiy ong va ma'daniyatni rivojlantirish yo'lida huquqiy ma'daniyat haqida U. Tajixanov va A. Saidovlarning huquqiy ma'daniyat nazariyasiga berilgan ta'rifga to'xtalib o'tsak:

Huquqiy ma'daniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini xalqning bu huquqiy tizimdan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati huquqiy normalarning ijro etilishi darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat farovonligi va rivoji yo'lida avvalroq harakat qilish, ya'ni yoshlar va bolalar ongiga huquqiy ma'daniyatni singdiruvchi huquqiy ongni o'stirish va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim rol o'ynaydi. Bu ishlarni amalga oshirish yo'lida samarali ishlash va uni rivojlantirib borish muhim sanaladi. Albatta bir kun kelib o'z natijasini beradi. Huquqiy demokratik davlatni rivojlantirishda demak biz yoshlarning o'rni beqiyos va kattadir. Har birimiz ham ushbu rivojlanish yo'lida o'z haq-huquqlarimizni bilish albatta Davlat va Jamiyat uchun foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O.Karimova, N. Ismatova, Sh. Sariqov, O. Amanova. O'zbekiston Davlat huquqlari asosi kitobi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi farmoni. PF-5618 09.01.19
3. U. Tajixanov, A. Saidov. Huquqiy m'adaniyat nazariyasi kitobi. Toshkent. 1998, 11-b



YURIDIK JAVOBGARLIK VA HUQUQBUZARLIK

Abdullayeva Muyassar Salohiddinovna

Farg'ona viloyati Yuridik texnikum

o'qituvchisi 3-darajali yurist

Annotatsiya: maqolada huquqiy javobgarlik belgilari va uning turlari hamda yuridik javobgarlikni mazmun-mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlari: huquqbuzarlik, yuridik javobgarlik, davlat organi.

Huquqbuzarlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: ijtimoiy xavflilik; huquqqa zidlik; ayblilik; jazolanish. Ijtimoiy xavflilik shundan iboratki, bunda huquqbuzarlik jamiyatning qadriyatlariga tajovuz qiladi, xususi va ijtimoiy manfaatlarni poymol etadi.

Huquqbuzarlikning zararliligi yoki xavfliligi shundan iboratki, u jamiyat hayotining maromiga salbiy ta'sir etadi. Huquqqa zidlik — huquqbuzarlikning ikkinchi belgisi. Bu o'rinda gap qilmish oqibatida qonunning, muayyan huquqiy normaning buzilishi to'g'risida bormoqda. Boshqacha aytganda, huquqbuzar qonunda yoki huquq normasida belgilab qo'yilgan taqiqni buzadi. Agar bunday taqiq bo'lmasa, huquqbuzarlik ham boyimaydi. Qonun kengaytirilgan holda yoki analogiya bo'yicha talqin etilishi mumkin emas. Ayblilik — huquqbuzarlikning uchinchi belgisi. Huquq normasini yuridik javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'yigan shaxs buzadi va shaxs bu harakatni qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etadi. Ayb — shaxsning o'zi sodir etgan huquqqa xilof harakatiga va uning zararli oqibatlariga ruhiy munosabati. Qariyb har doim inson oldida huquqqa mos yoki huquqqa zid tarzda harakat qilishni tanlash imkoni bo'ladi. Agar u ikkinchi yo'lni tanlasa, huquqqa xilof qilmishni aybli tarzda sodir etgan, deb hisoblanadi.

Balog'at yoshiga yetmaganlar yoki aqli noraso deb topilgan shaxslar sodir etgan qilmish (huquqqa zid bo'lsa ham) huquqbuzarlik bo'lmaydi. Baxtsiz hodisa, tasodif natijasida, biron kimsaga aybsiz zarar yetkazish hodisasi ham huquqbuzarlik emas. Huquqbuzarlikning to'rtinchi belgisi — jazolanish. Bu ma'lum huquqbuzarlik uchun uni sodir etgan shaxsning vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilishini bildiradi. Bu javobgarlik huquqiy normaning sanksiyasida ifodalanadi. Ba'zi hollarda shaxs qonunga binoan javobgarlikdan ozod etilishi ham mumkin. Lekin buni ham vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Yuridik javobgarlik, ijtimoiy javobgarlikning boshqa shakllaridan farqli ravishda, doimo huquq normalariga asoslanadi va davlat majburlov normalari bilan bog'liq bo'ladi. Yuridik javobgarlik — huquqbuzarning huquq normalariga asoslangan va huquqbuzarlik faktidan kelib chiqadigan qilmishi uchun javob berish va davlat majburlov choralari shaklidagi noxush oqibatlariga chidash majburiyati hamda shunday oqibatlarga haqiqatan duchor bo'lishidir. Huquqbuzarlikning har xil turlari turli xil yuridik javobgarlikka olib keladi. Masalan, fuqarolik huquqbuzarligi (majburiyatni bajarmaslik) — fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka (zararni qoplash), ma'muriy huquqbuzarlik (yo'llarda harakatlanish qoidalarini buzganlik) — ma'muriy javobgarlikka (jarima, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etishga) olib keladi. Jinoiy huquqbuzarlik, ya'ni jinoyat esa jinoiy javobgarlikka olib keladi (unga nisbatan ozodlikdan mahrum etishgacha bo'lgan jazo qo'llanishi mumkin). Yuridik javobgarlik ikki asosiy shaklda — sud tartibida va ma'muriy tartibda amalga oshiriladi. Jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning sud tartibi huquqbuzarga nisbatan faqat vakolatli davlat organi nomi bilan sud tomonidan jazo qo'llanilishini bildiradi. Ushbu sud tartibi fuqaroviy-huquqiy javobgarlik uchun xos, jinoiy javobgarlik uchun esa majburiydir.

Yuridik javobgarlikning ikki turi farqlanadi: jarima yoki jazo; huquqni tiklovchi javobgarlik. Jarima jazosi ma'muriy yoki intizomiy xato jinoyatlar uchun qo'llaniladi. Javobgarlikning ushbu turiga xos xususiyat shundan iboratki, u faqat protsessual shaklda amalga oshiriladi hamda tegishli vakolatlarga ega davlat organlari va mansabdor shaxslarning hujjatlari bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Islomov Z. Davlat va huquq: umumnazariy masalalari. — T.: 2000.
2. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. 1 qism. — T.: 1996.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI TIZIMI

Egamova Oygul Saidjonovna

Farg'ona viloyati Yuridik texnikumi
o'qituvchisi 3-darajali yurist

Jiyanova Shoxida Mahsumovna

Farg'ona viloyati Yuridik texnikumi
o'qituvchisi 3-darajali yurist

Annotatsiya: Maqolada saylov huquqi, saylov tizimining mazmun ochib berilgan. Shuningdek prezident saylovlarida nomzodlar masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlari: saylov, saylov huquqi, prezidenlikka nomzod, saylov tizimi.

Saylov insoniyat o'ylab topgan, hokimiyat vakolatini vujudga keltiruvchi eng qadimiy usullardan hisoblanib, u demokratiyaning yorqin ifodasi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida ishtirokining muhim shakli, davlat boshlig'i, vakillik organlarini (qonunchilik organini) vujudga keltirishning asosiy vositasidir.

Mustaqillikka erishganimizdan to hozirgi kungacha o'tkazilib kelinayotgan siyosiy va davlat qurilishidagi islohotlar davlat hokimiyati vakillik organlarini va jumladan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini tashkil qilishni demokratlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. O'tkazilayotgan demokratik islohotlarni, saylov tizimini islohotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi va usiz tegishli natijaga ham erishib bo'lmaydi.

Saylov huquqi, saylov tizimi takomillashib borgan sari, saylash va saylanish huquqi, umumxalq ovozi (referendumda) ishtirok etish huquqi ommaviy huquqning eng muhim va markaziy masalalaridan bo'lib boraveradi. O'zbekistonda o'tkazilayotgan saylovlar borgan sari sifat jihatidan yuqori saviyada o'tkazilmoqda. Saylovlar endi faqat umumiy, to'g'ri, teng asosda emas, balki yanada erkin o'tishi uchun chora tadbirlar ko'rish asosiy vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston saylov qonunchiligi shu davrgacha bo'lib o'tgan saylovlar davomida to'plangan milliy tajriba, ilg'or xorijiy saylov amaliyoti, shuningdek, xalqaro standartlar, fuqarolarning siyosiy ongi hamda elektoral madaniyatining o'sishi, amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning borishi va talablarini hisobga olgan holda jadal takomillashib bormoqda.

O'zbekiston saylov qonunchiligi tizimini shakllanishida mamlakatda Prezident lavozimini ta'sis etilishi ham muhim rol o'ynaydi. 1991-yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Qonun O'zbekiston Prezidentining umumxalq tomonidan, umumiy teng, to'g'ridan to'g'ri, prinsip asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishini o'rnatdi. Shuningdek qonunda prezident nomzodiga qo'yiladigan talablar, saylov tayinlash, nomzod ko'rsatish va boshqa barcha saylov jarayoniga taalluqli tadbirlar qonuniy mustahkamlanib qo'yilgan.

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish tartibi belgilangan. Prezidentlikka nomzodlar siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan ko'rsatiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyaning yuqori organi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga bittadan nomzod ko'rsatishi mumkin. Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodni tanlash uchun dastlab, boshlang'ich tashkilotlarining yig'ilishlarini o'tkazadi hamda aholining mehnat va istiqomat joylarida, ilmiy-o'quv muassasalarida, jamoat tashkilotlari va birlashmalarida turli-xil tadbirlar uyushtiradilar. Albatta nomzodni tanlashda uning shaxsiga alohida e'tibor beriladi. Bu esa siyosiy partiyaning jamiyatdagi mavqeini oshishiga xizmat qiladi.

Saylovlar natijasida, kim prezident etib saylanishida nomzod tanlash muhim masaladir. Shuning uchun nomzodlarni kim ko'rsatishi, qanday tartibda ko'rsatilishi, ularga qo'yiladigan talablar, nomzodlarni ro'yxatga olish, ro'yxatga olishni rad etish masalalari keng va mukammal tartibga solingan. O'zbekiston saylov qonunchiligini takomillashib borishi, nomzod ko'rsatish tartiblarini ham takomillashib borishiga ta'sir qiladi. Qonunchiligimiz nomzodlar ko'rsatish huquqiga ega sub'ektlar doirasini demokratiyaga, xalqaro saylov talablariga moslashtirish maqsadida bir necha o'zgartirishlarga uchradi. Nomzod ko'rsatish uchun qo'yilgan talablar osonlashtirildi. Saylovlarni demokratik, adolatli o'tishi nuqtai nazaridan qonunchiligimizda nomzodlar faoliyatini huquqiy asoslari mustahkamlab qo'yilgana bo'lib, u asoslar saylovlarda nomzodlarning teng ishtirok etishi, ularga bir xil sharoit yaratilishini ta'minlanishini ko'zda tutadi.



QONUN USTUVORLIGI VA QONUNIYLIKNI MUSTAHKAMLASHNING MUHIM AHAMIYATI

Kamolova Shaxlo Tirkashevna

Farg'ona viloyati Yuridik
texnikum o'qituvchisi 3-darajali yurist

Annotatsiya: Maqolada qonun ustuvorligi va qonuniylikni huquqiy davlatning asosiy tamoyili ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlari: qonun ustuvorligi, qonuniylik, huquqiy davlat.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilganligi bejiz emas. Ana shunday yondashuv tufayli bu boradagi ishlarining ko'lami, miqyosi va samaradorligi keyingi o'n yillikda nihoyatda kengayib, yangi bosqichga ko'tarilganini ko'p-ko'p misollarda ko'rish mumkin. Qonunning ustuvorligi nafaqat inson huquqlari, balki barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlari to'laroq hisobga olinishiga sharoit yaratadi. Natijada ularning yaratuvchilik imkoniyatlari, bunyodkorlik salohiyati to'laroq yuzaga chiqadi va jamiyat hayotidagi mavqei yil sayin o'sib, mustahkamlanib boradi. Qonun doirasida jamoat institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalarining faolligi, odamlar hayotiga ijobiy ta'siri kuchayadi. Keng ma'noda ijtimoiy taraqqiyotga, ijtimoiy adolat tantanasiga, jamiyatning yangilanishiga, insonning erkin yuksalishi va o'z salohiyatini yuzaga chiqarishiga xizmat qiladi.

Qonun ustuvorligiga iqtisodiyotni isloh qilishda, rivojlantirishda ham, iqtisodiy siyosatning turli yo'nalishlari, aytaylik, soliq, moliya – kredit siyosatida ham qonunga tayaniladi. Davlat bosh islohotchi sifatida qonun chiqarish, ijroiya va nazorat ishlari bilan shug'ullanadi, shuningdek, u ijtimoiy barqarorlik, huquq tartibot, jamiyat a'zolari qonuniy manfaatlari ta'minlanishining asosiy kafolati bo'ladi.

Qonun ustuvorligisiz iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazib bo'lmaganidek, iqtisodiy rivojlanishga erishmasdan qonun ustuvorligini ham ta'minlab bo'lmaydi. Bu ikki jarayon aslida dialektik birlikni tashkil etadi va ularni islohotlar jarayonida o'zaro ajratish mumkin emas. Yetishmovchilik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ham, fuqarolarni ham ishini bitirish uchun turli yo'llarni, shu jumladan, noqonuniy aylanma yo'llarni izlashga majbur etadi. Korruptsiya va poraxo'rlik uchun sharoit vujudga keladi. Masalani hal qilishda o'rta tushgan vositachilar ham o'z ulushini oladi. Iqtisodiy yetishmovchilik mavjud joyda suiste'molchilik hech qachon barham topmaydi. Mehnat ham munosib taqdirlanmaydi. Natijada daromaddarni noqonuniy va stixiyali qayta taqsimlash holatlari davom etaveradi. Oddiy qilib aytganda, iqtisodiy qoloqlik turli illatlarni — o'g'irlik, korruptsiya, poraxo'rlik, qo'shib yozish, tashmachilik, yashirin iqtisodiyotni va odam savdosini, boshqa jinoyatlarni ham keltirib chiqaraveradi. Qonun ustuvorligi va uning barchaga birdayligini ta'minlash uchun, birinchidan, jamiyat hayotining hamma yo'nalishlari, sohalari, jabhalarini qamrab olgan puxta va hayotga moslashuvchan qonunlar majmuasi vujudga kelishi va doimiy takomillashib borishi; ikkinchidan, jamiyat a'zolarining huquqiy savodxonlik darajasi va qonunga itoatgo'yligi, huquqiy madaniyati yuksak bo'lishi; uchinchidan, mavjud qonunlarni hayotga tatbiq etishning yetarlicha iqtisodiy shart – sharoiti, siyosiy – ma'muriy va ijtimoiy mexanizmi yaratilishi lozim. O'zbekistonda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida tizimli ishlar olib borildi va ular hozirda ham davom etilmoqda. 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqildi va qabul qilindi, o'sha paytdagi mavjud qonunlar Konstitutsiya talablariga moslashtirildi, yangi qonunlar tizimi yaratildi. Qonun chiqaruvchi organ – ya'ni, mamlakatimiz parlamentining o'zi ham isloh etildi, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha milliy dastur yaratildi va hayotga izchil tatbiq etilmoqda, sud – huquq tizimi, prokuratura, ichki ishlar tizimi chuqur isloh qilindi va qilinmoqda.



YANGI O‘ZBEKISTON AVLODLARIMIZ

To‘xtamatova Shoxsanam Xayrullo qizi
Farg‘ona Yuridik texnikum o‘quvchisi

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, ularning amalga oshirishda qabul qilinayotgan qonunlar yoritilgan.

Kalit so‘zlari: Yangi O‘zbekiston, yoshlar siyosati, imkoniyatlar.

Milliy mustaqillik jamiyatimiz a‘zolarininng ijtimoiy –siyosiy, hamda madaniy ma’naviy kamolotining kafoloti sifatida, kundalik hayotimizda jamiyatimizning har bir bo‘g‘inida tub o‘zgarishlarni olib kirdi. Bugungi kunda jamiyatda yoshlar real kuch sifatida o‘zligini namoyon qilayotgan ekan, ular faoliyati milliy taraqqiyotimizning rivojiga yanada ijobiyroq yo‘naltirishning yo‘l –yo‘riq va usullarini tadqiq etish zarurdir. Fuqarolik jamiyati asoslari mustahkamlanayotgan hozirgi bir davrda jamiyatning kelajagi bo‘lgan yoshlarga e‘tibor har qachongidan ham dolzarbdir. Shu bois bugungi kunda vatanimizda yoshlarga munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov *“Bugun biz o‘tmishdan qolgan o‘g‘ir me‘rosni, o‘sha paytda yo‘l qo‘yilgan xato, kamchiliklarni bosqichma –bosqich tuzatib boryapmiz. Qilayotgan bu ishlarimizning amaliy namoyonini yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar misolida ko‘rish mumkin”* degan edilar.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratish, jamiyat va davlat ishida ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosatini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbuslarini alohida ta‘kidlash lozim. *“Yangi O‘zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz”*. Shavkat Mirziyoyev. Davlatimiz rahbarining yoshlar kamolotiga qarayotgan doimiy e‘tibori, ayniqsa, ta‘lim islohotlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu islohotlarning yutug‘i esa yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlari uchun zamonaviy bilim olish, erkin kasb tanlash hamda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining *“Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”*gi qonunda yoshlarni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish, iste‘dodini qo‘llab-quvvatlash masalalari qamrab olingan. Qonun Yangi O‘zbekistondagi yoshlarimizning dunyoqarashini tubdan o‘zgartirishga asos bo‘ldi. Ushbu qonun amalda O‘zbekistonda yoshlar huquq-manfaatlarining huquqiy kafolatlari yanada kuchayayotganligini anglatish barobarida ertangi kunda mamlakatimiz yoshlarining yangi-yangi marralarni zabt etishiga, ularning yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishiga zamin yaratmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda iste‘dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta‘lim-tarbiya Yangi Renessansning mustahkam poydevori bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda 30-iyun — **“Yoshlar kuni”** deb e‘lon qilindi. Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag‘batlantirib borish maqsadida **“Mard o‘g‘lon”** davlat mukofoti va **“Kelajak bunyodkori”** medali ta‘sis etildi.

Yoshlarimizning nufuzli xorijiy oliy o‘quv yurtlarida tahsil olishi uchun ko‘maklashishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, xalqaro ta‘lim dasturlari bo‘yicha eng yuqori ballarni to‘plagan iqtidorli yoshlarga imtihon topshirish xarajatlari to‘liq qoplab berilishi joriy etildi. Izlanuvchi yoshlarni rag‘batlantirish maqsadida *“Yosh olimlar”* innovatsion tanlovi uchun 30 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilganining o‘zi ham katta imkoniyatdir.

Albatta, biz yoshlar berilayotgan sharoitlardan, yaratilayotgan imtiyozlar, imkoniyatlardan samarali foydalanib, yuritimizning rivojlanishi uchun munosib hissa qo‘shamiz.



FUQAROLAR MUHOFAZASINI TA'MINLASH HAMDA HIMOYA QILISH OMILLARI

Usmonova Odina Habibjonovna

Farg'ona viloyati Yuridik texnikumi
Fuqaro va mehnatni muhofaza qilish
mutaxassisi 3-darajali yurist

Annotatsiya: Maqolada fuqarolarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish omillari hamda fuqarolar muhofazasini ta'minlovchi tashkilotlarning vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlari: favqulodda vaziyatlar, fuqaro muhofazasi, tabiiy ofatlar, FVV.

Fuqarolar muhofazasi- umumdavlat mudofa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqarolarni, xalq xo'jaligi tarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning muttasil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Mustaqilligimizning dastlabki davrlarida fuqarolarni va xududlarni tabiiy ofatlardan, turli xildagi avariyalardan muhofaza qilish, fuqarolarning mo'tadil hayot faoliyatini ta'minlash borasidagi vazifalarni hal etish uchun O'zbekiston hukumati tomonidan 1991-yilda fuqaro mudofaasi tizimi fuqaro muhofazasi tizimiga aylantirildi.

O'zbekiston fuqarolarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza etishning qonun bilan belgilangan asosiy tamoyillari: insonparvarlik, inson hayoti va sog'ligining ustuvorligi, axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchligi, favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish choralarining ko'rilishidir. Fuqarolar muhofazasi davlat tizimlari - harbiy davrda ham, tinchlik davrida ham yuzaga keladigan xavflardan aholini, hududlarni, moddiy boyliklarni muhofaza qilishda muhim vazifalarni bajaradi. Bunday keng qamrovli vazifalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1999-yilda *"Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"*gi hamda 2000-yilda *"Fuqaro muhofazasi to'g'risida"*gi qabul qilingan qonunlarida o'z aksini topgan. Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari quyidagi yo'nalishdagi tadbirlar majmuasidan iborat:

1. Aholini, hududlarni va moddiy boyliklarni favqulodda vaziyatlar oqibatidan (dushmanning harbiy harakatlaridan, tabiiy ofat, avariya va halokatlardan) muhofaza qilish;
2. Har qanday favqulodda vaziyatlarda xalq xo'jaligi tarmoqlarining, obyektlarning barqarorligini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o'tkazish;
3. Fuqaro muhofazasi kuch va vositalari shayligini ta'minlash;
4. Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi rahbarlarini, mutaxassislarini va fuqaro muhofazasi kuchlarini fuqaro muhofazasiga tayyorlash hamda oddiy aholini himoyalash qoidalariga o'rgatish.
5. Aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

Favqulodda vaziyatlardan himoyalashning asosiy sharti, sharoitni baholay olish, keltirib chiqargan sababini va uning mexanizmini bilishdir. Jarayonning mohiyatini bilib, uning oqibatini oldindan aytib berish mumkin, o'z vaqtida va aniq olingan ma'lumot samarali himoya uchun o'ta muhimdir. Favqulodda vaziyat oqibatlaridan himoyalash usullari va vositalaridan samarali foydalanish, zamonaviy texnosotsial muhitda hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar bilan birga olib borishni taqozo qiladi. FVlarda aholini himoya qilishning asosiy usullari, aholini evakuatsiya qilish, himoya inshootlariga berkitish, shaxsiy himoya hamda tibbiy profilaktik vositalarni qo'llashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganimizda, fuqarolar muhofazasi har qanday favqulodda vaziyatlarda fuqarolarni, moddiy resurslarni muhofaza qilish, fuqarolarni qanday hatti-harakat etishi, ularga qanday chora tadbirlar bilan yordam berilishi, shikastlangan zonalarida qutqaruv va tiklov ishlarini olib borish, ishlab chiqarish tarmoqlarini muttasil ishlashini ta'minlash vazifalarini bajaradi. Zero, yer yuzida umumiy qirg'in qurollari, hujumkor qurollarning zamonaviy turlari mavjud ekan, shu bilan birga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bo'lishligi muqarrar bo'lganligidan har bir davlatda va uning barcha hududlarida fuqarolar muhofazasi davlat tizimi tashkil etiladi va uning vazifalari aniq belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. – T.: 2011
2. Tojiev M., Ne'matov I., Ilhomov. Favqulodda vaziyat va fuqaro muhofazasi. – T.: 2002
3. "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, Toshkent, 2000



DAVLAT MUSTAQILLIGINING OILALAR MUSTAHKAM BO'LISHIDAGI AHAMIYATI

Xusainova Soxibaxon Sarvarjon qizi

Toshkent shahar Mirobod tumani
FHDYO bo'limi 2-toifali inspektor

Annotatsiya: maqolada mustaqilligimiz sharofati bilan yurtimizdagi tub o'zgarishlar, yaratilayotgan imkoniyatlar xususida fikrlar berilgan. Shuningdek yurtning tayanchi bo'lgan Oilaning mustahkamligini ta'minlashda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan.

Kalit so'zlari: mustaqillik, oila, oila kodeksi, oila huquqi, oila muhofazasi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimiz o'z mustaqil taraqqiyot yo'lining o'ttiz yilligini nishonlash arafasida turibdi. Tarix oldida bu muddat kiprik qoqqanchalik lahzalarga teng davr hisoblanadi. O'tgan o'ttiz yil mohiyatan yurtimiz tarixida o'ta mas'uliyatli va sharaflı davrni tashkil etdi. Shu davr mobaynida har birimizning hayotimizda, mamlakat taqdirida muhim va keskin o'zgarishlar yuz berdi, turmush tarzimiz o'zgarib, o'zligimizni anglay boshladik. Qisqa davr ichida davlat va jamiyat qurilishida, huquqiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida, eng muhimi odamlarimizning ongu-shuurida tom ma'noda yangicha qarash va yangicha fikrlash tuyg'usi shakllanib ulgurdi.

Yurtimiz ilgarigi iqtisodiyoti bir tomonlama shakllangan, qoloq respublikadan barcha sohalarida jadal rivojlanib, fuqarolarning hayot darajasi, siyosiy-ijtimoiy faolligi, ongu tafakkuri tobora yuksalib borayotgan, jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida uzoq-yaqindagi barcha mamlakatlar bilan do'stlik va hamkorlik munosabatlarini keng miqyosda olib borayotgan zamonaviy, ochiq va demokratik davlatga aylandi.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davriga kelib O'zbekiston o'z istiqboli va kelajagini oilani rivojlantirish, uni e'zozlashda, deb bilayotgani an'anaviy qadriyatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Yurtning tayanchi, istiqboli mustahkam oilaga bog'liqdir. Oila tinch-totuv, mustahkam bo'lishi mana shu yurtning rivoj topishida birlamchi vazifani bajaradi. Shuni ta'kidlash lozimki, oila tinch, bir-biriga mehrli bo'lsa, Vatan yuksaladi. Shuning uchun hamma joyda oilalar mustahkam bo'lishi uchun ko'plab chora-tadbirlar o'tkazilmoqda. Har bir oila farovon, tinch bo'lishi lozim. Bunda ota-onaning xatti-harakatiga qarab farzand tarbiya topadi. Davlatning asosiy prinsiplari asosida xalqning, mahallaning tayanchi sifatida oila asosiy o'rin tutadi.

Oila-muqaddas dargoh. Birgina shu muqaddas so'zning oilaga nisbatan ishlatilishida chuqur ma'no va mohiyat mujassam. Zotan, millatning ertangi kuniga dastlab oilada poydevor qo'yiladi, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi avlod shakllanadi, milliy madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar asrab avaylanadi, jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy farovonlik va madaniy yuksalishlariga asos solinadi, mustahkamlanadi. Insonga xos bo'lgan chinakam xayotni, farovon va baxtli turmush sharoitini mana shu amallarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatida inson va uning manfaatlari ustuvor ekan, biz ko'zlagan maqsadlarga erishishda hayotimizning tayanchi va suyanchiga aylangan oilaning o'rni benihoya kattadir. Oila qurish bu – mas'uliyatli ish bo'lib, yoshlarning o'zlari uchun yangi bo'lgan ijtimoiy maqomga har tomonlama tayyorgarlik ko'rishlarini taqozo etadi. Ularni oiladagi munosabatlarni tartibga solishda qonunchilikning o'rni ajralib turadi. Yoshlarning oila to'g'risidagi qonunchilikni bilishi o'z huquqlarini himoya qilish, mustahkam va sog'lom oila qurish uchun zarurdir. Oila sog'lom ekan – jamiyat nustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir. Shuning uchun ham oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, bolaning shaxs sifatida shakllanishi, kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishi hamda ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishishida asosiy poydevor hisoblanadi.

Oilani mustahkamlash, ota-onalar va bolalarning huquqini himoya qilishga jahondagi nufuzli tashkilotlar ham katta hissa qo'shdi. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda inson manfaatlari, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish xalqaro huquq normalariga binoan amalga oshirildi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948-yil), "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya" (1979-yil 18-dekabr) va boshqa qator hujjatlarning parlamentizm tomonidan



ratifikatsiya qilinishi mustaqillik yillarida oila, onalik va bolalik manfaatlarini xalqaro huquq normalari asosida himoya etish sohasidagi ijobiy qadamdir. Mamlakatimizda oilaviy-huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning me'yoriy hujjatlari, xalqaro huquqiy normalar, Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari, O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom, Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish to'g'risida Nizom, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqidagi qaror, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining oila huquqi masalalariga qaratilgan dasturiy ko'rgazmalari bilan tartibga solindi.

Oila nafaqat O'zbekistonda balki xalqaro miqyosda ham qay darajada dolzarb ekanligini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh assambleyasining 1993-yil 20-sentyabrdagi yalpi yig'ilishida 1994-yildan boshlab 15-mayni "Xalqaro oila kuni" sifatida nishonlashga kelishilganligi va shu bilan birga mamlakatimizda ham 1998 -yil "Oila yili", 2012 - yil "Mustahkam oila yili", 2016- yil "Sog'lom bola va ona yili" deb e'lon qilinganligi guvohdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarga tinchlik ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur".

Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash borasida mutlaqo yangicha tizim ishlab chiqildi, keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Prezidentimiz 2018-yil 27-iyun kuni imzolagan "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining maqsad va vazifalariga ko'ra, mamlakatimizda oilalar mustahkamligi yo'lida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, unda oila institutini mustahkamlashning institutsional va huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, qiyin hayotiy sharoitga ega oilalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida olish maqsadida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining yagona idoralararo axborot bazasini yaratish ko'zda tutilgan. Shuningdek, oilaviy biznesni, oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish, Oila kodeksining oiladagi huquqiy munosabatlar mezonlarini aniqlash, alimentlarni belgilash, ajrashish vaqtida ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalarini yanada takomillashtirish, ko'p bolali va muhtoj oilalarga imtiyozli kreditlar berish va yer maydonlarini taqdim etish ham nazardan chetda qolmagan. Hujjatda ijtimoiy himoyaga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, voyaga yetmagan yoki nogironligi bo'lgan farzandlarni tarbiyalayotgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalarga yer uchastkalaridan samarali foydalanishida ko'maklashish, ota-onalar uchun nogironligi bo'lgan farzandlarni to'g'ri parvarishlash va tarbiyalash bo'yicha metodik hamda amaliy qo'llanmalarni ishlab chiqish, patronaj va ijtimoiy xizmatlar yordamida ularning ko'nikmalarini oshirish va boshqalar nazarda tutilgan. Shuningdek oilalarda ichki oilaviy va shaxsiy munosabatlarni, xususan, ota-ona va farzandlar, er va xotin, qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, oilada mojaroli va og'ir turmush sharoitlarini amaliy hal qilish mexanizmlarini joriy etish ko'zda tutilgan. Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, oilada tartib bo'lsa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi.

Oila muhofazasi uchun qilingan bu sa'y-harakatlar mamlakatimizda tinch-totuv, to'kis va ziyoli oilalar yanada ko'payishiga, farzandlarimiz sog'lom va barkamol bo'lib o'sishida ko'plab qulayliklar yaratishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Oila to'g'risida"gi farmon va qarorlari

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 31-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(1-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
